

TASDIQLAYMAN

“Renessans sog‘lomlashtirish
oromgohi” Davlat muassasasi



Sh. Axmedjanov.

(Imzo)

(F.I.Sh.)

2022 yil «13» 09

“Renessans” sog‘lomlashtirish oromgohiga sifatli kompyuter
texnikalari va boshqa jihozlar xarid qilish uchun eng yaxshi takliflarni

TANLASH BO‘YICHA XARID QILISH HUJJATLARI

MUNDARIJA

- I. ISHTIROKCHILAR UCHUN QO'LLANMA
- II. TEXNIK TOPSHIRIQ
- III. TANLASH HUJJATLARINING NARXGA OID QISMI
- IV. SHARTNOMA LOYIHASI
- V. TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARIGA ILOVALAR

I. ISHTIROKCHILAR UCHUN QO'LLANMA

1. Eng yaxshi takliflarni tanlash (Tanlash) predmeti

“Renessans” sog‘lomlashtirish oromgohiga sifatli kompyuter texnikalari va boshqa jihozlar (matn davomida “Tovar”) xarid qilish.

Buyurtmachi – “Renessans sog‘lomlashtirish oromgohi” Davlat muassasasi (matn davomida Buyurtmachi deb yuritiladi).

Tanlashning chegaralangan qiymati – 1 474 520 000,00 (bir milliard to‘rt yuz yetmish to‘rt million besh yuz yigirma ming) so‘m.

Tanlash jarayonlari buyurtmachi tomonidan maxsus axborot portali orqali elektron shaklda amalga oshiriladi. Sharhnomani bajarishning eng yaxshi shartlariga ko‘ra g‘oliblarni tanlash ishtirokchilarining takliflarini baholash bo‘yicha e’lon qilingan mezonlar asosida Tanlash xarid komissiyasi (matn davomida Komissiya deb yuritiladi) tomonidan aniqlanadi. Komissiya tarkibi Buyurtmachi tomonidan shakllantiriladi.

2. Tanlash doirasida taqdim etiladigan har qanday hujjatlarning (ma’lumotlarning) maxfiyligi.

2.1. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko‘rib chiqish va baholash to‘g‘risidagi ma’lumotlar, tanlash o‘tkazish vaqtida ham, u tugagandan so‘ng ham, baholash tartibotiga rasmiy ravishda aloqador bo‘lmagan shaxslarga xabar qilinmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno. Maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilganlik uchun Komissiyasi a’zolari, ishchi guruuhlar va/yoki mutaxassislar guruhi javobgar bo‘ladi (O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuning 15-moddasi).

3. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari yuzasidan tushuntirish berish

3.1. Tanlash bo‘yicha xarid qilish hujjatlari (matn davomi – Tanlash hujjatlari) yuzasidan so‘rov yuborish uchun ishtirokchilar davlat buyurtmachisiga quyidagi manzil bo‘yicha murojaat yuborishi mumkin:

“Renessans sog‘lomlashtirish oromgohi” Davlat muassasasi.

Manzil: Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani, Burchmullo, Navobod MFY, 44-uy.

Mas’ullar: Sh.Axmedjanov.

Tel: + 998 97 720 67 85

3.2. Tanlash hujjatlari yuzasidan tushuntirishlar berish bo‘yicha so‘rov, tanlash ishtirokchisi tomonidan tanlash takliflarini berish muddati tugashidan kamida ikki kun oldin yozma ravishda so‘ralishi mumkin. Davlat buyurtmachisi ko‘rsatilgan so‘rov olingan kundan boshlab ikki ish kuni ichida tushuntirish javobini yuborishi shart.

4. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini tayyorlash va taqdim etish

4.1. Tanlash ishtirokchisi o‘zining tanlash takliflarini tayyorlash va taqdim etish bilan bog‘liq barcha xarajatlarni o‘z zimmasiga oladi. Buyurtmachi va Komissiya tanlash natijalaridan qat’iy nazar mazkur xarajatlar uchun javobgar bo‘lmaydi.

4.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflari unga bog‘liq hujjatlar hamda ishtirokchi va buyurtmachi o‘rtasidagi barcha yozishmalar o‘zbek yoki rus tillarida bo‘lishi lozim.

4.3. Tanlash ishtirokchilari o‘z takliflarini elektron shaklda Davlat buyurtmachisi tomonidan davlat xaridlari tizimi (etender.uzex.uz)ga (matn davomida – Tizim) joylashtirilgan e’lon muddati tugagunga qadar taqdim etishlari mumkin.

4.4. Tanlash ishtirokchisi faqat bitta taklif berishga haqli. Ishtirokchining taklifiga tanlash predmeti hisoblangan barcha tovarlar kiritilishi lozim.

4.5. Tanlashda ishtirok etish uchun ishtirokchilar tanlashning chegaralangan qiymatidan 3% miqdorida zakalat o‘tkazishlari lozim.

5. Tanlash taklifiga kiradigan hujjatlar

5.1. Tanlash taklifi quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- malakaviy saralash hujjatlari (tizim orqali elektron shaklda taqdim etiladi);
- texnik taklif (tizim orqali elektron shaklda taqdim etiladi);
- narx taklifi (tizim orqali elektron shaklda taqdim etiladi).

6. Malakaviy saralash

6.1. Malakaviy saralash uchun qo'yilgan talablar:

-tanlash ishtirokchisining umumiylumoti va tajribasi haqida ma'lumotnomalar (ma'lumotnomalar shakli 1-sonli ilovada keltirilgan);

-tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida mavjud emasligi haqida, shuningdek buyurtmachi yoki uning yuqori turuvchi tashkiloti bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarining yo'qligi to'g'risida kafolat xati (kafolat xati shakli 2-sonli ilovada keltirilgan);

-tanlash ishtirokchisining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida soliq organidan olingan ma'lumotnomalar;

-ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza (erkin shaklda).

7. Texnik taklif

7.1. Ishtirokchi texnik taklif jadvalining asl nusxasini, ushu bo'riqnomaga ilova qilingan 3-sonli ilovaga muvofiq rasmiylashtirib tizim orqali elektron shaklda taqdim etishi lozim.

7.2. Texnik taklif tanlash hujjatining texnik topshiriq qismida ko'rsatilgan talablarga muvofiq bo'lishi lozim. Belgilangan talablarga nisbatan ustun takliflar bilan xizmatlarni yetkazib berish bo'yicha takliflarga yo'l qo'yiladi. Bunda ustun takliflarni muvofiqligi va takliflarni qabul qilish bo'yicha qarorlar Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

7.3. II-bo'lim, texnik topshiriqda keltirilgan normalar va texnik topshiriqlarga mos kelмаган takliflar diskvalifikasiya qilinadi.

7.4. Tanlash ishtirokchisi tanlash predmeti bo'lgan Tovarlardan texnik baholash uchun bir birlikda namuna taqdim etishi lozim. Tovar namunalari quyidagi manzil Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Mahtumquli kochasi, IT Park binosiga yetkazib berilishi lozim. Tanlash takliflarini topshirish so'ngi muddati tugagunga qadar Tovar namunasini taqdim etmagan tanlash ishtirokchilari tanlashdan chetlashtiriladi.

7.5. Tanlash ishtirokchisi texnik taklifda tovar bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

8. Narx taklifi

8.1. Ishtirokchi narx taklifini tizim orqali elektron shaklda taqdim etishi lozim.

8.2. Ishtirokchining narx taklifi barcha xarajatlarini (soliqlar, xodimlarning ish haqi, yetkazib berish, o'rnatish va boshqalarni) o'z ichiga olishi shart.

9. Tanlash taklifining amal qilish muddati

9.1. Tanlash ishtirokchisining takliflari, tanlash takliflarini qabul qilish tugaydigan kun sifatida belgilangan sanadan boshlab kamida bir oy mobaynida kuchda qolishi lozim.

9.2. Ayrim hollarda komissiya tanlash ishtirokchisini taklifini amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida iltimos qilishi mumkin. Bunday iltimos va unga javob xat ko'rinishida rasmiylashtiradi.

10. Tanlash takliflarini baholash tartibi

10.1. Tanlash o'tkazish to'g'risida e'lon muddati tugagandan so'ng tanlash takliflarini baholash uchun Komissiya tanlash ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan takliflarni o'rganadi va baholaydi.

10.2. Tanlash ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash muddati tijorat takliflari qabul qilish so'ngi kuni tugagandan boshlab o'n kundan oshmasligi kerak.

10.3. Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan elektron taklifda barcha hujjatlarning mavjudligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi. Talab etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda, Komissiya ushbu taklifni rad etish xuquqiga ega.

10.4. Komissiya tanlash g'olibini aniqlash uchun rad etilmagan takliflarni tanlash hujjatlarida belgilangan mezonlarga ko'ra baholaydi.

10.5. Agar tanlash ishtirokchisi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda soxta ma'lumotlar aniqlansa, Komissiya ushbu ishtirokchini tanlashdan chetlashtiradi.

10.6. Tanlash takliflarini baholash va tanlash g'olibini aniqlash tanlash hujjatlarida belgilangan mezonlarga asosan amalga oshiriladi (4-ilova).

10.7. Ishtirokchining taqdim etgan taklifi tanlash hujjatlari belgilangan talablariga javob bermasa, Komissiya taklifni rad etadi.

10.8. Tijorat takliflarini baholash jarayonida Komissiya tanlash ishtirokchilaridan ularning takliflariga nisbatan tushuntirishlar so'rashi mumkin. Ushbu jarayon belgilangan tartibda rasmiy yozma ravishda tanlash tashkilotchisi orqali amalga oshiriladi. Tushuntirish jarayonida taklifning mohiyatiga, shuningdek narxning o'zgarishiga yo'l qo'yilmaydi.

10.9. Tanlash hujjatlari va takliflarida ko'rsatilgan mezonlarga asoslanib shartnomani bajarish uchun eng yaxshi shartlarni taklif qilgan (eng ko'p ball olgan) tanlash ishtirokchisi g'olib hisoblanadi.

10.10. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasida qayd etiladi.

10.11. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi Komissiyaning barcha a'zolari tomonidan elektron shaklda imzolanadi hamda davlat xaridlari tizimida e'lon qilinadi.

10.12. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi e'lon qilinganidan so'ng 2 kun muhokamaga joylashtiriladi. Tanlov ishtirokchilari mazkur muddat davomida buyurtmachiga tanlash natijalari to'g'risida so'rov yuborish xuquqiga ega. Bunday so'rov kelib tushgan kundan boshlab ikki kun mobaynida Komissiya majlisida ko'rib chiqiladi va ishtirokchiga so'rov javobi taqdim etiladi.

11. Ishtirokchilarni malakaviy saralashdan o'tkazish tartibi

11.1. Tanlashda ishtirok etish uchun malakaviy saralash o'tkazilganda tanlashning quyidagi ishtirokchilari qo'yilmaydi:

belgilangan muddatda malakaviy saralash uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim qilmagan;

shartnomada tuzishga vakolatli bo'lmagan;

soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi bo'lgan;

qayta tashkil qilish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;

tugatish bosqichida bo'lgan;

davlat buyurtmachisi bilan sud yoki hakamlik muhokamasi holatida bo'lgan;

insofsiz ijrochilarning Yagona reestridda bo'lgan;

davlat buyurtmachisi yoki yuqori turuvchi tashkilot bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha zimmasiga olingan majburiatlarni tegishlicha bajarmagan;

muassislar bitta yuridik va jismoniy shaxslar bo'lgan ishtirokchilar.

11.2. Insofsiz ijrochilarning Yagona reestridda bo'lgan tanlash ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun davlat buyurtmachisi maxsus axborot portaliga murojaat qiladi.

11.3. Malakaviy saralashdan o'tkazish yoki o'tkazishdan rad etish to'g'risidagi qaror Komissiya a'zolari tomonidan qabul qilinidi.

12. Shartnoma imzolash

12.1. Buyurtmachi mazkur Tanlash hujjatlarining III-bo'limida keltirilgan shaklga muvofiq tanlash ishtirokchisi bilan 10 (o'n) kun mobaynida shartnoma imzolashi lozim.

12.2. Tanlash g'olibi tanlash shartlari asosida shartnoma tuzishdan bosh tortgan hollarda shartnoma tuzish huquqi zaxira ijrochisiga o'tadi. Bunda zaxira ijrochisi tanlash g'olibi taklif qilgan narxda shartnoma tuzishi yoki shartnoma tuzishdan bosh tortishi mumkin.

12.3. Miqdoriy, sifat va texnik parametrlari bo'yicha shartnomani bajarmagan tanlash g'olibi qonun hujjatlari va/yoki shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgar bo'ladi.

13. Tanlashni o'tkazilmagan deb e'lon qilish

13.1. Tanlash quyidagi holatlarda Komissiya tomonidan o'tkazilmagan deb e'lon qilinishi mumkin:

tanlashda bitta yoki birokta ishtirokchi ishtirok etmagan bo'lsa;

takliflarni ko'rib chiqish natijasiga ko'ra Komissiya barcha takliflarni rad etgan bo'lsa;

faqatgina bitta taklif tanlash hujjatlari talablariga muvofiq kelsa tanlash o'tkazilmagan deb topiladi.

Tanlash talablariga doir biror o'zgartirish kiritish zarurati paydo bo'lganda Komissiya asoslarni keltirgan holda tegishli qarorni qabul qiladi.

III. TANLASH HUJJATLARINING NARXGA OID QISMI

1. Narx taklifini shakllantirish.

1.1. Tanlashning umumiy cheklangan miqdori – 1 474 520 000,00 (bir milliard to‘rt yuz yetmish to‘rt million besh yuz yigirma ming) so‘m QQS bilan birga. Tanlash predmeti hisoblangan har bir tovarning narxlari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

№	Tovar nomi (rus tilida)	Soni (to‘plam)	Narx (QQS bilan birga)	Umumiy summa
1	Электронная-интерактивная доска	11	41 975 000	461 725 000
2	Электронная-интерактивная доска с мобильным стендом	1	47 975 000	47 975 000
3	Моноблок 23,8 дюм	43	14 720 000	632 960 000
4	Моноблок 27,0 дюм	11	15 870 000	174 570 000
5	Многофункциональное устройство МФУ (3/1)	12	7 670 000	92 040 000
6	Мультимедийная система для видеоконференций (Терминал ВКС)	1	46 850 000	46 850 000
7	Видео проектор (в комплекте с экраном)	1	18 400 000	18 400 000
JAMI				1 474 520 000,00

1.2. Ishtirokchi narx taklifiga tovarlarni belgilangan joyga yetkazib berish, kafolat muddati davomida texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlari kiritilishi lozim.

1.3. Tanlash ishtirokchisi tomonidan belgilangan narx ishtirokchi tomonidan tovar yetkazib berish bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilishiga qadar bo‘lgan davrda o‘zgartirilmaydi. Tanlash komissiyasi narxlarni pasaytirish yuzasidan muzokaralar o‘tkazishni taklif qiladigan holatlar bundan mustasno.

1.4. Tanlash ishtirokchisi tomonidan narx taklifi maxsus axborot portalı orqali kiritiladi.

2. To‘lov valyutasi va moliyalashtirish manbai

2.1. To‘lov valyutasi: O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so‘mda;

2.2. Tanlash savdolari yakunlari bo‘yicha g‘oliblar bilan imzolangan shartnomaga Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

3. To‘lov shartlari

3.1. Yetkazib beruvchi bilan tuzilgan shartnomada tovar uchun avvaldan 15 foiz miqdorida oldindan to‘lov amalga oshiriladi. Qolgan to‘lovlar Yetkazib beruvchi tomonidan shartnomaga ko‘ra majburiyatlar bajarilganidan so‘ng hisob-faktura asosida yakuniy 85 foiz miqdordagi to‘lov amalga oshiriladi.

4. Yetkazib berish muddati

4.1. Ishtirokchi tomonidan tovar yetkazib berish muddati – 10 kun.

IV. TANLASH BO'YICHA XARID QILISH HUJJATLARIIGA ILOVALAR

(Ishtirokchining firma blankasida)

Tanlash ishtirokchisi haqidagi umumiylumotlar

[*Tanlash ishtirokchisi quyida keltirilgan yo‘riqnomalarga muvofiq ushbu shaklni to‘ldirishi lozim.
Taklif qilingan formatda hech qanaqa o‘zgartish va almashtiruvga yo‘l qo‘yilmaydi.*]

Sana: [tanlash taklifi berilgan sana (yil, kun, oy) yozilsin]

№ _____

1. Tanlash ishtirokchisi nomi [<i>Ishtirokchining rasmiy nomi yozilsin</i>]
2. Ro‘yxatga olingan joydagi Tanlash ishtirokchisi manzili: [<i>Ro‘yxatga olingan joyda Tanlash ishtirokchisining yuridik manzili yozilsin</i>]
3. Tanlash ishtirokchisi ro‘yxatga olingan guvohnoma ma’lumotlari: [<i>ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi guvoxnomada ko‘rsatilgan sana, qayd raqami</i>]
4. Tanlash ishtirokchisining vakolatli vakili to‘g‘risidagi ma’lumotlar Ismi: [<i>vakolatli vakilning ismi yozilsin</i>] Manzili: [<i>vakolatli vakilning manzili yozilsin</i>] Telefon/faks: [<i>vakolatli vakilning telefon/faks raqami yozilsin</i>] Elektron pochta manzili: [<i>vakolatli vakilning elektron pochta manzili yozilsin</i>]
5. Bank rekvizitlari:
6. Ta’sis hujjatlarida ko‘rsatilgan ustav kapitali (ustav fondi, ustav jamg‘armasi yoki boshqa) ning miqdori: _____
7. Tanlash ishtirokchisining ta’sischilarini to‘g‘risidagi ma’lumotlar: - [<i>ta’sischilarning to‘liq ismi yozilsin</i>] - ...
8. Faoliyatning asosiy yo‘nalishlari: [<i>asosiy faoliyat yo‘nalish ko‘rsatilsin</i>]
9. Hujjatlar asl nusxalarining ilova qilinayotgan nusxalari: [<i>ilova qilinayotgan nusxalarning nomi</i>] <input type="checkbox"/> <i>yuqorida qayd qilingan ishtirokchining ro‘yxatga olish guvohnomasi va boshqa hujjatlar.</i>

Talab qilinayotgan yoki shunga o‘xhash xizmatlarni bajarish tajribasi haqida ma’lumot

Nº	Yetkazib berilgan tovar (xizmat) nomi*	Xaridor nomi, uning manzili va aloqa ma’lumotlari*	Vaqti (muddatlari)*	Eslatma*

* Izoh: yetkazib berish tajribasi ilgari tuzilgan shartnomaga nusxasini taqdim etish bilan tasdiqlanadi.

(vakolatli shaxs imzasiga)

(vakolatli shaxsning F.I.O. va lavozimi)

M.O‘.

Sana: « ____ » 20 ____ y.

(Ishtirokchining firma blankasida)

Tanlash xarid komissiyasi raisiga

KAFOLAT XATI

Tanlash hujjatlarini o‘rganib chiqib, ushbu kafolat xati bilan
biz _____ (tanlash ishtirokchisining to‘liq nomi) quyidagilarni:

- qayta tashkil etish, tugatish yoki bankrotlik bosqichida emasligimizni;
- Davlat buyurtmachisi bilan sud yoki hakamlik holatida emasligimizni;
- Davlat buyurtmachisi yoki uning yuqori turuvchi tashkiloti bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo‘yicha lozim darajada bajarilmagan majburiyatlarning mavjud emasligini;
- insofsiz ijrochilarining yagona reestridda mavjud emasligimizni tasdiqlaymiz.

F.I.O. [korxona rahbari yoki ishonchnomaga muvofiq vakilning familiyasi, ismi va otasining ismi ko‘rsatilsin].

_____ [taklifini imzolagan mas’ul shaxsning lavozimi ko‘rsatilsin].

_____ [familiyasi yuqorida qayd qilingan mas’ul shaxsning imzosi].
m.o’.

20__ yil «__» ____ dagi ____ -sonli ishonchnoma bo‘yicha
_____ {Ishtirokchining to‘liq ismi ko‘rsatilsin} nomidan va
topshirig‘i bo‘yicha tanlash taklifini imzolashga barcha vakolatlarga ega bo‘lgan shaxs
(ishonchnoma asosida imzolangan taqdirda ko‘rsatiladi).

(Ishtirokchining firma blankasida)

№ ____ va ____ sana

____ sonli lot bo'yicha **texnik taklifi** jadvali

№	Tovar nomi	Texnik tavsif
1	...	[Taklif etilayotgan tovar to 'g'risida to 'liq ma'lumot yozilishi lozim]

Kafolat muddati _____**Yetkazib berish muddati** _____

[Servis ko 'rsatish bo'yicha ma'lumotlar ilova qilinishi lozim]

Boshqa texnik ma'lumotlar _____

F.I.O. [korxona rahbari familiyasi, ismi va otasining ismi ko 'rsatilsin].

«_____» [taklifni imzolagan mas'ul shaxsning lavozimi ko 'rsatilsin].

«_____» [familiyasi yuqorida qayd qilingan mas'ul shaxsning imzosi].

m.o'.

Tanlash ishtirokchilarining takliflarini baholash tartibi va mezonlari

Tanlash ishtirokchilarning malakasini baholash Xarid komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Taklifning malakaviy qismi uchun umumiy beriladigan ball 20 ballni tashkil etadi.

Ishtirokchi tomonidan talab etilgan ma'lumotlar taqdim qilinmagan bo'lsa, Komissiya uni tanlashda ishtirok etishga yo'l qo'ymaslik xuquqiga ega.

1. Dastlabki malakaviy baholash mezonlari

№	Mezon	Izoh	Baholash
1	Tanlash ishtirokchisining umumiy ma'lumoti va tajribasi haqida ma'lumotnomma	Ha / Yo'q <i>(ishtirokchining ma'lumotnomasi asosida baholanadi)</i>	Tajribaga ega – 5 ball Tajribasi 6 oydan kam – 2 ball Tajribaga ega emas (yoki ma'lumot taqdim etilmagan) – 0 ball
2	Tanlash ishtirokchisi qayta tashkil etish, tugatilish yoki bankrotlik bosqichida, buyurtmachi bilan sud jarayoni yoki arbitraj holatida, insofsiz ijrochilarning yagona reyestrida mavjud emasligi haqida, shuningdek buyurtmachi yoki uning yuqori turuvchi tashkiloti Prezident ta'limga muassasalari agentligi bilan ilgari tuzilgan shartnomalar bo'yicha zarur darajada bajarilmagan majburiyatlarning yo'qligi to'g'risida kafolat xati	Ha / Yo'q <i>(ishtirokchining kafolat xati asosida baholanadi)</i>	Ha – 5 ball Yo'q (yoki taqdim etilmagan) – 0 ball
3	Tanlash ishtirokchisining soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida soliq organidan olingan ma'lumotnomma	Ha / Yo'q <i>(ishtirokchining ma'lumotnomasi asosida baholanadi)</i>	Ha – 5 ball Yo'q (yoki ma'lumot taqdim etilmagan) – 0 ball
4	Ishtirokchi tomonidan korrupsiya ko'rinishlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ariza	Mavjud / Mavjud emas	Ha – 5 ball Yo'q (taqdim etilmagan) – 0 ball

2. Taklifning texnik qismini baholash

Takliflarning texnik qismini baholash Tanlash hujjalariiga asosan Komissiya tomonidan (zarur hollarda mutaxassis jalb qilgan holda) amalga oshiriladi. Taklifning texnik qismida ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan namuna baholanadi. Texnik taklif uchun beriladigan umumiy ball 60 ballni tashkil etadi. Texnik baholashdan o'tmagan (ballar natijalariga ko'ra 40 ball va undan kam ball to'plagan) Tanlash ishtirokchilarining takliflari keyingi ko'rib chiqishdan rad etiladi.

Texnik baholash mezonlari

Nº	Mezon	Izoh
1	Texnik topshiriq talablariga asosan taqdim etilgan mahsulot namunasi muvofiqligiga ko‘ra eng yuqori ball bilan baholanadi	Texnik taklif (mahsulot namunasi) texnik talablarga muvofiq bo‘lsa (maksimal) – 60 ball Texnik taklif (mahsulot namunasi) texnik talablarga muvofiq bo‘lmasa yoki taqdim etilmasa - 0 ball (ishtirokchi tanlashdan chetlatiladi)

3. Taklifning narx qismini baholash

Tanlash ishtirokchilarining narx takliflarini baholash ularning elektron tijorat takliflari asosida tizim tomonidan avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Taklifning narx qismi uchun maksimal beriladigan ball 20 ballni tashkil etadi. Eng past narx/qiyomat eng yuqori ball bilan baholanadi. (maksimal ball indikatorning minimal ko‘rsatkichiga beriladi)

4. Takliflarni kompleks baholash

Takliflarni kompleks baholash xarid komissiyasi tomonidan olingan quyidagi ma’lumotlar natijalariga asoslangan holda amalga oshiriladi.

- 1). Texnik-malakaviy qismini baholash;
- 2). Narx qismini baholash

Nº	Mezon	Barcha toifalar bo‘yicha umumiylah baholash 100 ball
1.	Texnik-malakaviy qismini baholash	80 ball
	1.1 Malakaviy qism	20 ball
	1.2 Texnik qism	60 ball
2.	Narxni baholash	20 ball
	2.1 Narx qismi	20 ball